

Vaqt mazmuni

“Vaqtning ketdi, naqding ketdi, naqding ketdi, baxting ketdi.” Yaxshi topilgan xalq naqli bu. Vaqt bilan hisoblashib yashash umr mazmuni. Vaqtdan unumli foydalanish degani el-yurt manfaati yo'lida fidoyilik bilan xizmat ko'rsatish, hissa qo'shish demakdir.

Talabalarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish hamda talabalarni sportga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirish maqsadida **“Qishloq va suv xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish fakulteti”** talabalari o'rtasida “Farzandlari sog'lom yurt — qudratli bo'lur” shiori ostida sportning “VOLEYBOL” turidan fakultet kubogi uchun o'tkazilgan musobaqalar o'z nihoyasiga yetdi. 10 kun mobaynida davom etgan musobaqada 1-4 kurs talabalari orasidan 10 ta jamoa ishtirok etdi. Fakultetning 100 ga yaqin talabalari ushbu musobaqaga jalb qilindi. Voleybol musobaqalari 3 bosqichda bo'lib bo'lib o'tdi.

❑ 1-bosqich — Saralash.

2-bosqich — Yarim final.

3-bosqich — Final bosqichlarida bo'lib o'tdi.

10 kun mobaynida o'tqazilgan musobaqalarda final bosqichiga

1-bosqich talabalarining “Yoshlar” jamoasi

3-bosqich talabalarining “Energetik” jamoasi

4-bosqich talabalarining “Chaqmoq “ jamoalari yetib kelishdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra:

“Energetik” jamoasi 1-o'rinni egalladi va o'zining tengsizligini isbotlab fakultet kubogini qo'lga kiritdi

2-o'rinni esa “Yoshlar” jamoasi qo'lga kiritdi.

3-o'rinni esa “Chaqmoq “ jamoasi qo'lga kiritdi.

O'tkazilgan musobaqa yakunida esa “Eng yaxshi hujumchi” nominatsiyasiga “Energetik” jamoasi a'zosi Haydarov Jaloliddin sazovor bo'ldi.

“Eng yaxshi o'yinchi” nominatsiyasiga esa “Yoshlar” jamoasi a'zosi

Nazarov Hasan sazovor bo'ldi.

Musobaqa so'ngida barcha tashkilotchi va tashabbuskor, shuningdek, musobaqani o'tkazishda faol ishtirok etgan talabalar tashakkurnoma bilan taqdirlandilar.

Musobaqani yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazishda “Qishloq va suv xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish fakulteti “ dekanati nomidan “Jismoniy madaniyat va sport” kafedراسi mudiri va murabbiylariga minnatdorchilik bildirildi.

Yoshlar ittifoqining institut boshlang'ich tashkiloti yetakchisi Akmal Berdimurodov axboroti

Institut matbuot kotibi: Rahimboy Jumaniyozov